

XOJANING “MIFTOHUL ADL” VA “GULZOR” ASARLARIDAGI HIKOYALAR TAHLILI

Shamsiddinova Hafizabonu

FDU filologiya fakulteti o‘zbek tili 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xojaning “Miftohul adl” va “Gulzor” asarlardagi hikoyalarning o‘xshash tomonlari va obrazlari haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, “Miftihil adl”dagi adolat konsepsiyasi, davlat boshqaruvdagi axloqiy mezonlar va ramziy obrazlar tahlili bilan bir qatorda “Gulzor” asaridagi nafs, axloqiy poklanish, ma’naviy kamolot g‘oyalari ham yoritiladi. Maqola Xoja ijodining didaktik tabiatini ochish, uning hikoyalarida aks etgan axloqiy-ma’rifiy qarashlarni ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: “Miftohul adl”, “Gulzor”, Iskandar, No‘shirvon, Sulton Mahmud, pandnoma, ma’naviy g‘oya.

O‘zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotida axloqiy-didaktik yo‘nalish alohida o‘rin egallaydi. Bu an’anada pandnoma, nasihatnoma, voqeaviy hikoyalar shaklida yaratilgan asarlar insonning ma’naviy yetukligi, adalatparvarlik, halollik, kamtarlik kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qilgan. Pandnoma ruhida yaratilgan Xojaning “Miftohul adl” va “Gulzor” asarlari ham ana shunday ma’rifiy merosning muhim namunalari andir.

“Miftohul adl” va “Gulzor” kichik-kichik hikoyalar to‘plamidir. Undagi hikoyalarning ko‘p qismi dunyoviy masalalarga: davlatni boshqarish, podsho va xalq, podsho va saroy xalqi, obodonchilik va osoyishtalik, ma’rifat va axloq-odob kabi masalalarga bag‘ishlangan. Diniy mavzudagi hikoyalari “Qur’on” va boshqa diniy kitoblardagi materiallar asosida tuzilgan. Bu asarlardagi hikoyalar didaktik hikoyalardir. Xoja ularda biror kichik voqeani hikoya qilish orqali kitobxonlarga pand-nasihat qiladi, ularga o‘git beradi, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta’limiy masalalarga doir xulosalar chiqaradi va to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, sadoqat va marhamat kabi olijanob insoniy fazilatlarni targ‘ib qiladi.

“Miftohul adl” va “Gulzor”da xilma-xil obrazlar mavjud. Ular turli ijtimoiy tabaqalarga mansub bo‘lgan kishilar: shohlar, vazirlar, amaldorlar, olimlar, dehqonlar, darveshlar va boshqalar. Bunda bir ijtimoiy tabaqaga kiruvchilar turli xil bo‘lishi mumkin deb o‘ylagan va shunga ko‘ra Xoja odil va zolim podsho, donishmand va munofiq vazirlar, sadoqatli va xudbin amaldorlar obrazini yaratadi. Bunda dehqonlar va oddiy xalqni halol, to‘g‘ri, aqlli, irodali va or-nomusli kishilar sifatida tasvirlaydi. Bu xususiyatlari bilan “Miftohil adl” va “Gulzor” hikoyalari yanada xalq og‘zaki ijodiga yaqinlashtirgan va oddiy xalq orasida ham mashhur bo‘lgan.

Hikoyalardagi ayrim obrazlar, masalan, Iskandar, No‘shirvon, Sulton Mahmud, Sulton Malikshoh va boshqalar tarixiy shaxslarni keldirsa-da, biroq ularni tarixiy shaxs sifatida emas, badiiy-fantastik obraz qilib yaratadi. Bundan tashqari bu asarlarda Nuh va Daqqi Yunus kabi diniy-afsonaviy obrazlar ham mavjud. Hikoyalar kichik-kichik va juda ixcham bo‘lib, ularda katta bir mavzu yoritilgan.

Endi biz “Miftohul adl” va “Gulzor” asarlardagi obrazlar bilan tanishib chiqaylik.

Iskandar Zulqaynayn obrazi uchraydi. Bu obraz Nizomiy Ganjaviy, Jomiy, Dehlaviy va Alisher Navoiylarning Iskandarga bag‘ishlangan dostonlar orqali yaxshi taniymiz. Xoja ham o‘z asarlariga bosh qahramon sifatida gavdalantiradi. Bunda bir hikoyani keltirib, Iskandar ajoyib viloyatga borib qoladi. U yerda kambag‘al insonni topa olmaydi. Shunda Iskandar u viloyatning tartib-qoidalaridan taajjublanadi va viloyat podshosidan so‘raganda, u shunday deb javob beribdi: “Bizning oramizda biror kishi qashshoq bo‘lsa, barimiz yig‘ilib, mol jam qilib, ul kishiga beramiz va ul kishini jamiyatda o‘zimiz bilan teng qilurmiz”. Iskandar bu viloyatdan g‘oyat xursand bo‘libdi. Hikoyatdan ko‘rinib turibdiki, Xoja xalq orasidagi ziddiyatni faqat adolatli podshoh orqali bartaraf qilish mumkin deb o‘ylaydi. Shunga ko‘ra, ko‘p hikoyalarda adolatli hukmdor obrazini yaratadi, xalqparvarlik va adolatparvarlik g‘oyasi mujassamlashtiradi.

Adolat haqida so‘z yuritilganda, Xoja No‘shirvon obrazini ham gavdalantirgan. “No‘shirvon va beva xotin” hikoyatini keltirib, adolat g‘oyasini ilgari suradi.

No'shiron - adolatli ideal hukmdor. U el-yurtning osoyishtaligi va farovonligi uchun kurashadi, oddiy xalqning arz-dodini eshitadi va ularni adolatli hal qiladi. Hikoyada eshakni ham arz-dodini adolatli hal qilib bergani, uning uchun mamlakatdagi barcha teng ekanligini ko'rishimiz mumkin. O'tmishda kishilar shunday adolatli hukmdorni orzu qilib, o'z orzularini turli xildagi obrazlar orqali tasvirlar edi. Xoja ham No'shiron obrazini shunday obrazlardan biri sifatida vujudga keltirgan.

“Miftoh ul-adl” va “Gulzor”da o'z mohiyati bilan “No'shiron va beva xotin” hikoyasiga juda yaqin bo'lgan yana bir necha hikoya bor. Masalan, “Sulton Mahmud va Darvesh”, “Sulton Mahmud va kampir”, “Bahrom va cho'pon”, “Sulton Mahmud, tolibul ilm va qozi” kabilar. Bu hikoyalarning asosini Sulton Mahmud tashkil etadi. Jumladan, “Sulton Mahmud, tolibul ilm va qozi” hikoyasi boshdan oxir zolim, munofiq va xiyonatchi qozilarni fosh etishga qaratilgan. Qozi tolibul ilmning omonatiga xiyonat qiladi. Tolibul ilm esa qozilarga ishonch va e'tiqod bilan qaraydi. Biroq hayot, bilim va tajriba uning qozilarga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi. Tolibul ilm faqat qozini fosh qiluvchi kishi sifatida emas, balki bir donishmand siftida ham gavdalanadi. Bu hikoyada ham Sulton Mahmud adolatli podsho sifatida tasvirlanadi.

Xojaning “Miftohul adl” va “Gulzor” asarlari o'zbek mumtoz adabiyotining didaktik yo'nalishda yaratilgan muhim namunalardan hisoblanadi. Har ikkala asarda hikoya janrining qisqa, ixcham, pandnoma shakli ustuvor bo'lib, muallif ramziy obrazlar, majoziy mazmunlar va umumlashtirilgan falsafiy xulosalar orqali kitobxonni o'ylashga, xulosa chiqarishga undaydi. Xojaning hikoyalarida komillik, halollik, sabr, kamtarlik, rahm-shavqat kabi fazilatlar targ'ib qilinadi, masalan, “Chumchuq” hikoyasini olaylik. Unda chumchuqni qafasga solgan kishi uni bo'shatib yuboradi, chumchuqqa yaxshilik qiladi. Chumchuq buning evaziga uni boy qiladi, ya'ni uyining ichidagi yog'och tagida bir ko'za oltin borligini aytadi. Agar kishi uni qo'yib yubormaganda, yaxshilik qilmaganda, bu sirdan xabardor bo'lmas edi.

Xoja o'zbek klassik adabiyotining XV1 asrda yetishgan yirik namoyondalaridan biridir. Uning hikoyalari qimmatli yodgorlikdir. Xoja o'z hikoyalari haqida:

Bu damkim, bordur, umrimda boqiy,

Bo'loy dedim bu bazm ahlina soqiy.
Qilib tartib bir necha hikoyat,
Hikoyat axlidan aylay rivoyat.
Va gar yaxshi, yomon ham bo'lsa bore,
Ki bizdin so'ngra bo'lg'ay yodgore.
degan edi. ¹

Xoja adolat, halollik, kamtarlik, nafsni tiyish kabi fazilatlarni targ'ib qilar ekan, badiiylikdan ko'ra ma'rifiy g'oyani ustuvor qo'yadi. Har ikki asar o'z davrida ijtimoiy-ma'naviy hayotning aks-sadosi bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ham insonni komillikka yetaklovchi pandnoma sifatida o'z qadrini yo'qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Poshshoxoja. "Miftoh ul-adl" va "Gulzor" haqida. Nashrga tayyorlovchi Zohidov. V., G'aniyeva S. – Toshkent, 1962.
2. Mallayev. N. O'zbek adabiyoti tarixi. O'qituvchi nashriyoti, 1965.
3. Rahmonov. N. O'zbek adabiyoti tarixi. Sano-standart nashriyoti: Toshkent, 2017.
4. Vohidov. R., Eshonqulov. H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent, 2006.

¹ Natan Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi – O'qituvchi nashriyoti, 1965(659-bet)